

NAVOIY ASARLARIDA OSHIQ OBRAZI

Axmadjonova Jasmina Jamshid qizi

Nizomiy nomidagi TDPU 2-bosqich talabasi

e-mail: axmadjonovajasmina070@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada badiy adabiyotdagi oshiq oraziga berilgan ta’rif va tavsiflar, xususan buyuk murafakkir Alisher Navoiy asarlaridagi oshiq obrazi haqida so‘z boradi. Shu bilan bir qatorda majoziy ish haqida alohida to‘xtalib, shoir asarlaridagi ifodalangan nozik ma’nolar keltirib o‘tilgan. Navoiy asarlaridagi oshiq obrazlari tahlili ham keltirib o‘tilgan.*

KALIT SO‘Z: ruhiyat, komil inson, tasavvuf, tushuncha, Alisher Navoiy, asar, xamsa, pandnoma, oshiq, mashuqa, jom, may, Alloh, ilohiyot, nazariya.

ANNOTATION: *This article deals with the definitions and descriptions of the lover in fiction, in particular, the image of the lover in the works of the great thinker Alisher Navoi. At the same time, the metaphorical work is emphasized, and the subtle meanings expressed in the poet’s works are mentioned. The analysis of the images of lovers in Navoi’s works is also mentioned.*

KEY WORDS: spirituality, perfect person, mysticism, understanding, Alisher Navoi, work, khamsa, pandnoma, lover, mistress, jam, may, Allah, theology, theory.

Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy o‘z asarlarini o‘ziga hos badiiyat va yondashuv bilan yozgan. Har bitta asarida ma’lum bir nozik ma’no anglatuvchi o‘xshatishlar, atamalar va so‘zlardan foydalangan.

Navoiy ijodidining har bitta yo‘nalishida tasavvuf, oshiq, mashuqa, ilohiyot, ishq kabi tushunchalarni uchratishimiz mumkin. Tamomila shu atamalar asosiga qurulgan desak ham xato bo‘lmaydi.

Badiiy adabiyotda har bitta shoir va yozuvchi ishq tushunchasi va uni ifodalovchi, tashuvchi oshiq obrazini turlicha talqin qiladi va bu obrazga turlicha yondashadi.

Alisher navoiy ijodida ham oshiq obrazi alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa ulug‘ shoirning g‘azallarida bu obrazga alohida e’tibor berilgan. Shoir asosan oshiq obrazida o‘zini gavdalantiradi. Bu esa g‘azaldagi nozik ma’noni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shoir g‘azallarida tarannum etgan va aqldan ozish darajasigacha yetib borgan ishq bu aslida majoziy ma’nodagi ishqdir. Ya’ni Allohga bo‘lgan ishq nazarda tutiladi. Bundan anglashiladiki oshiq ham o‘zini Allohnинг sevgisi yo‘lida qurbon qilgan shaxsdir. Quyida Alisher Navoiyning shox asari bo‘lgan “Xamsa” asaridagi Farxod obrazida orqali ifodalangan majoziy ishq haqida so‘z boradi.

Ishq atamasini turli o‘xshatishlar, badiiy obraz va badiiy san’atlar orqali ifodalangan shoir o‘z asarlaridagi asosiy g‘oya deb aynan majoziy ishqni nazarda tutadi.

“Farhod va Shirin” dostonida ifodalangan ishq-muhabbatni navoiyshunoslikda uzoq vaqt odatiy, ya’ni avom ishqni sifatida talqin va tavsif qilib kelindi. Holbuki, Farhod va Shirin sevgi-muhabbatni iztirobini avom ishqni talabi asosida tahlil etilsa, Farhodning to‘rt manzilda uchragan to‘siq-g‘ovlarni yengib o‘tishining asar syujetiga olib kirilgani tushunarsiz bo‘ladi. Shu bois “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” tipidagi dostonlarning ichki qatlami va mohiyatida aks ettirilgan majoziy ishqni nafsi havodon poklanmagan avom sevgisi zamiridagi ishq turidan ajratib olish qiyin kechadi. Zero, Farididdin Attor “Mantiq ut-tayr” dostonida surat va ma’ni ahli haqida so‘z yuritib, har ikkisi ham so‘zim shaydosi, ammo ma’ni ahli sirlarimning haqiqiy egasidir, xoslar ham, avom ham undan ma’naviy lazzat va huzur oladi, deya ta’kidlaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, “Farhod va Shirin” dostonidan avom ham, xoslar ham baravar o‘zlariga kerakli ma’naviy oziq oladilar. Avom asarning zohiriy tomoniga ahamiyat bergen holda zavq va huzur tuysa, ma’ni ahli uning ichki qatlamiga joylangan ma’no durlarini teradi.

Farhod taniga tushgan ishq cho‘g‘ini har qancha sir tutishga urinmasin, uni oshkor etmaslikning iloji yo‘qligi uy ichiga tushgan olovga qiyoslanadi. Bunday uydan dud chiqmagan taqdirda ham uy ichi yonib, oxir-oqibat yorilishi muqarrar. Farhodning o‘z ruhiyatida ro‘y berayotgan o‘zgarishni oshkor etmaslikka harakati esa naqshbandiylik ta’limotining “Dil ba yoru dast bakor” dasturilamali bilan bog‘liq ekanini alohida qayd etish lozim. Navoiy naqshbandiylik ta’limotining mohiyati, yo‘l-yo‘riq va qoidalarini o‘z ijodida san’atkorona aks ettirgan. Navoiyshunos olim Yoqubjon Ishoqov naqshbandiylik ta’limotining paydo bo‘lish tarixiga e’tiborni qaratib, yassaviylik tariqatida “zikri aloniya” asosiy o‘rin tutsa, naqshbandiylikda “zikri xufiya” asosiy ahamiyat kasb etishi va uning mumtoz adabiyotimizga ta’siri masalasida o‘z ilmiy xulosalarini beradi. Shu ma’noda aytish mumkinki, naqshbandiylik o‘z davrining ilg‘or ta’limoti sifatida mumtoz adabiyotimizda haqiqat sir-asrorini majoziy shakl va bo‘yoqlar vositasida tasvirlashga asos bo‘lganini alohida ta’kidlash lozim. Demak, Farhodning dastlab o‘zi mutbalo bo‘lgan ishqni hech kimga bildirmasligi, shu tufayli qattiq iztirob va dardu g‘amga duchor bo‘lishining tasviri bevosita naqshbandiylik qarashlariga hamohang:

**Xiradning pardasig‘a qayda yoro,
 Yoshurmoq ishq o‘tin aylab madoro.
 Quyoshni zarra yoshurmoq bo‘lurmu,
 Hubob ichra tengiz turmoq bo‘lurmu?**

Xulosa o‘rnida shuni aytta olamizki Alisher Navoiy asarlaridagi ishq tushunchasi va oshiq obrazi tamoman majoziy manodagi ishqni ifodalaydi. Asarlarning bugungi kungacha o‘z qiymatini yo‘qotmaganining asl sababi ham shundadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. I jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – 778 b.
2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. III jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – 792 b.
3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. IV jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – 786 b.
4. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. IX jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – 766 b.
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. IV jildlik. IV jild. – Toshkent: Fan, 1985. – 636 b.
6. Orzibekov.R. Lirikada kichik janrlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1976. – 162 b.
7. Xudoyorova M. Alisher Navoiy she’riyatida qit’a janri: Filol.fan.b.f.dok.diss.. – Toshkent, 2022. – 156 b.
8. Haqqul I. Kasbi kamol o‘zni tanishdir. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2021. – 174 b